Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

Raqamlashtirishning rivojlangan davlatlarda foydalanish darajasi.

Abdumajidova Mohichehra Baxtiyorjon qizi, Andijon Mashinasozlik Instituti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo‘nalishi talabasi

Qo‘ldashev Erkinjon, “Axborot tizimlari va texnologiyalari”

Kafedrasi dotsent i.f.n.

Men ushbu maqolamda raqamli iqtisodiyoti rivojlangan dunyo davlatlari reytinglari haqida, raqamlashtirishning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, davlat ishtirokidagi kompaniyalar mazkur jarayonda qanday muammolarga duch kelayotganligi haqida ma’lumot berganman.

Kalit so‘zlar: Dunyo davlatlari, rivojlangan davlatlar, raqamli texnalogiyalar.

Raqamli iqtisodiyoti rivojlangan dunyo davlatlari.

"Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.

Raqamli iqtisodiyotda davlatning o'rni.

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.

Raqamlashtirishning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni.

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar iqtisodiyotning anchagina ulushini egallaydi. Shuning uchun ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o‘sishiga bevosita ta’sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat sektorining raqamli transformatsiyasi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri bo‘la oladi.

Misol uchun, “Raqamli Qozog‘iston” davlat dasturini ko‘rib chiqish mumkin. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, uni amalga oshirishdan jami iqtisodiy samaradorlik 2018-2019-yillarda 2 mlrd. AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etdi. Mana shuning o‘zi axborot texnologiyalarini yoppasiga joriy etish foydasiga salmoqli dalil bo‘la oladi, nazarimda.

Bu borada O‘zbekiston va jahon darajasi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Abdumajidova Mohichehra Baxtiyorjon qizi, Qo‘ldashev Erkinjon (2023). Raqamlashtirishning rivojlangan davlatlarda foydalanish darajasi. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/586

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

materiallar to‘plami

Jahonda raqamli transformatsiya hali davom etmoqda. Hatto ilg‘or mamlakatlarda ham bu jarayon tugallanmagan va raqamlashtirish darajasi tarmoqdan tarmoqqa qadar juda kuchli o‘zgarib boradi. Ba’zi sohalar allaqachon ATning anchagina ta’siriga uchragan (moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiyalar, reteyl (chakana savdo), media sektori), boshqalari esa bu yo‘lning boshida turibdi va raqamli texnologiyalarni ayrim jarayonlargagina (neft-gaz va tog‘-kon tarmog‘i, qishloq xo‘jaligi, mudofaa sanoati) joriy etmoqda. Bu bilan birinchilardan bo‘lib jadal transformatsiyalash ular uchun raqobatbardoshlilikning garovi bo‘lgan korxonalar shug‘ullana boshladilar.

Biz iste’molchilarning ehtiyoj va talablari doimiy ravishda o‘sib borayotgan davrda yashayapmiz. AT va venchur moliyalashtirish innovatsion biznes modellariga ega bo‘lgan bozor ishtirokchilarining bozorga chiqishini engillashtirdi. Internetning barcha erda tarqalishi esa raqamli servislarning paydo bo‘lishiga imkon berdi.

O‘zbekistonda, menimcha, banklar, telekommunikatsiya va sug‘urta kompaniyalari boshqalarga qaraganda ancha faolroq raqamli transformatsiyaga o‘tmoqda, chunki ularda daromadlilikning muhim ko‘rsatkichlari texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga bog‘liq. Yana aytish mumkinki, avtomatlashtirishning ahamiyatini OKMK va NKMKda ham yaxshi tushunishadi.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalar mazkur jarayonda qanday muammolarga duch kelmoqda?

Transformatsiya — juda murakkab jarayon. To‘qson to‘qqiz foiz holatda kompaniyalarda ishni nimadan boshlash kerakligi haqida tushuncha bo‘lmaydi. “Expera-Suntronix” alyansi O‘zbekistonda 20 yildan ko‘proq vaqtdan beri kompleks axborot tizimlarini qurib kelmoqda va jarayonni tarkibiy qismlarga bo‘lishi, loyihani amalga oshirish rejasini tuzishi, loyiha ofisini tashkil etishi mumkin. Lekin bu bilan xalqaro va mahalliy ekspertlarning butun bir jamoasi shug‘ullanadi. Ana endi bugungi kungacha butkul boshqa vazifalarni bajarib yurgan korxona menejerini tasavvur qilib ko‘ring. Albatta, u qo‘yilgan vazifaga qanday yondashishni tushunmaydi.

Ikkinchidan, etkazib beruvchilar bilan ishlashda mablag‘ni tejamaslikni, texnologiyalar tarmog‘idagi jahon etakchilari — “Oracle”, “IBM”, “SAP”larning echimlaridan foydalanishni tavsiya etaman.

Axborot texnologiyalari qisqa muddatli mahsulotlar emas. Masalan, NKMK uchun bizning kompaniyamiz 10 yil rejalashtirishga mo‘ljallangan dasturni tuzib berdi. Ko‘rib turganingizdek, bir marta joriy etilgan tizimlardan uzoq vaqt mobaynida foydalanish mumkin. Shuning uchun ham boshidayoq sifatni tanlash muhim.

Jahon banki hisob-kitoblari binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko‘payishi yillik YaIM ko‘lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o‘sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

2010 yilda Boston Consulting Group kompaniyasi raqamlashtirish ko‘lamini 20ta mamlakatdan iborat guruh uchun 2,3 trillion dollarga (4,1 foiz YaIM) baholagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 10-15 yildan keyin bunday iqtisodiyotning jahon YaIMidagi ulushi 30-40 foizga yaqinlashadi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda IT sohasida taxminan 1 foiz aholi mehnat qiladi, ushbu sektor ish o‘rinlarini boshqalarga solishtirganda nisbatan qamroq yaratadi. Biroq IT yo‘nalishining yuksalishi yangi texnologiyalarni o‘zlashtirayotgan boshqa sohalarda ish o‘rinlarining yaratilishiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-hususiyatlari.
2.https://www.ipotekabank.uz/uz/news/news241122
3.https://davrbank.uz/uz/news/tsifrovizatsiya..
4.https://m.kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli...
5.journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/19.

materiallar to‘plami

EDUX TA’LIM PLATFORMASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Andijon mashinasozlik institute, 4-bosqich talabasi Abdujalilova Nigoraxon Xabibullo qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron kutubxona haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Asosan, elektron kutubxonada axborot xavfsizligini ta’minlash hamda, bu orqali foydalanuvchilarga qulaylik yaratish masalalari tahlil qilingan va echim topilgan.

Kalitso‘zlar. Kutubxona, elektron, xavfsizlik, autentifikatsiya, kontent, protokol, redaktor, platform, parol, ekspert, kombinatsiya.

Kutubxona kontenti xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin.

Foydalanuvchilar uchun kuchli parol talab qilish. Kutubxonaga kirish uchun foydalanuvchilarning kuchli va noaniq parollar ishlatishini ta’minlash. Bu parollar uzunligi, katta va kichik harflarning kombinatsiyalari, raqamlar va belgilar qo‘llashni talab qilishi mumkin.

Kuchli autentifikatsiyani qo‘llash. Foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish uchun ikki bosqichli autentifikatsiya (misol uchun parol bilan birga SMS yoki e-mail orqali tasdiqlash) yoki kengaytirilgan autentifikatsiya usullarini qo‘llash mumkin (misol uchun Google Authenticator).

Xavfsiz bog‘lanish. Kutubxonaga foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha murojaatlarni (saytga kirish, ma’lumotlarni o‘qish, ma’lumotlarni yuklash, kompyuterga yuklash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish kabi) xavfsizlik protokollari bilan himoya qilishni ta’minlash. Bu protokollarga HTTPS (Xavfsiz Hypertext Transfer Protocol) va SSL (Xavfsiz Sockets Layer) kiritiladi. Kutubxona xavfsizlik yangilanishi. Kutubxona platformasini xavfsizlik holatini muhokama qilish, yaxshilash va talqin qilish uchun redaktorlar va xavfsizlik ekspertlari bilan hamkorlik qilish. Bu, xavfsizlik muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha yaxshi amaliyotlarni taqdim etish, kuzatuv va ta’minlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Dasturlar va platformalarni yangilash. Kutubxonalardagi dasturlar, tizimlar va platformalar o‘z vaqti bilan yangilanishi kerak. Yangilanishlar kutubxonalar tashrifiga kiradigan yangiliklarni, ushbu yangilanishlardagi xavfsizlikni to‘g‘ri qilishni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumotlarni shifrlash. Kutubxonalarda saqlangan foydalanuvchi ma’lumotlari (shaxsiy ma’lumotlar, to‘lov karta ma’lumotlari va boshqalar)ni shifrlash imkoniyatini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Maxmudov M.X: Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish: Darslik. Tashkent: 2009.